

## X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 95 768,8 mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganimizda foyda 219 703,2 mln.so'mga kamaygan yoki 30,4 foizni tashkil etdi.

### 2024 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (-), mln. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-mayga nisbatan, foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>95 768,8</b>	<b>30,4</b>
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	56,4	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	202 136,7	69,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'min-lash va havoni konditsiyalash	-183 035,9	-
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20,5	96,9
Qurilish	5 258,8	150,8
Savdo	58 340,1	113,2
Ta'lim sohasidagi	42 801,1	77,1
Tashish va saqlash	5 453,7	29,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	968,2	104,5
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	492,3	97,0
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	206,4	2,0 m.
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	8,2	-
Boshqalar	-36 937,7	-

## Korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

2024 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o'sishi " O'z sanoatqurilish materiallari uyushmasi" (43 786,8 mln.so'm), "O'zbekneftegaz" AJ (188 467,7 mln.so'm), "Uzbekistan Airports" AJ (2 420,2 mln.so'm) ga to'g'ri keladi.

**Foydaning pasayishi.** Yirik tijorat korxonalari tomonidan foydaning pasayishi kuzatildi. Hududiy elektr tarmoqlari AJ -83589,0 mln.so'mga to'g'ri keldi.

### **2024 yil yanvar- may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (-), mln. so'm</i>	<i>2023 yil yanvar-mayga nisbatan, foizda</i>
<b>Buxoro viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>95 768,8</b>	<b>30,4</b>
Buxoro sh.	-10 666,4	173,3
Kogon sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Buxoro	-97 063,0	-
Vobkent	4 191,1	125,4
Jondor	108,3	20,3
Kogon	46 211,6	58,7
Olot	42,8	2,5 m.
Peshko'	16 608,6	65,8
Romitan	2 339,5	21,4
Shofirkon	41,0	37,1
Qorako'l	-55 326,3	-
Qorovulbozor	190 620,8	98,0
G'ijduvon	-3 578,7	-

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Qorovulbozor tumani 190 620,8 mln. so‘m, Kogon tumani 46 211,6 mln. so‘m, Peshko‘ tumani 16 608,6 mln. so‘m, Romitan tumaniga 2 339,5 mln. so‘m va Olot 42,8 mln. so‘m to‘g‘ri keladi.

**Zararlar.** 2024 yil yanvar-may oylarida 18 ta korxonalar va tashkilotlar 292 693,5 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘ydi. Zararning asosiy qismi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ 83 589,3 mln. so‘m (jami zararning 28,6 foizi), “O‘zcharmsanoat” uyushmasi 55 459,8 mln. so‘m (18,9 foizi), O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoati korxonalar uyushmasi 6 263,9 mln. so‘m (2,1 foizi) boshqa soha korxonalariga to‘g‘ri keladi.

**2024 yil yanvar- may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar summasi</i>	
		<i>mln. so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan, foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>18</b>	<b>292 693,5</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	6	62 436,3	21,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘min-lash va havoni konditsiyalash	3	183 140,2	62,6
Qurilish	-	-	-
Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	2	38 210,2	13,1
Ta‘lim	2	2 274,2	0,8
Chakana va ulgurji savdo motorli transport vositalari va mototsikllarni ta‘mirlash	2	6 562,2	2,2
Boshqalar	3	70,4	-

Zararlarning asosiy qismi suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, elektr,gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 183 140,2 mln. so'm (62,6 foiz), ishlab chiqaradigan sanoat 62 436,3 mln. so'm (21,3 foiz), chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 38 210,2 mln. so'm (jami zararning 13,1 foizi), ulgurji va chakana savdo 6 562,2 mln. so'm (2,2 foiz) va boshqalar 2 344,6 mln. so'm (0,8 foiz) korxonalarini hissasiga to'g'ri keldi.

**2024 yil yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	<i>Korxonalar soni</i>	<i>Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, foizda</i>	<i>Zarar summasi, mln. so'm</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>18</b>	<b>100,0</b>	<b>292 693,5</b>
Buxoro shahri	9	44,1	129 097,6
Buxoro tumani	2	33,2	97 188,8
Kogon tumani	1	0,1	356,0
G'ijduvon tumani	3	2,2	6 360,0
Qorako'l tumani	3	20,4	59 691,1


**Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati<sup>1)</sup>**

2024 yil 1 iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 7 676 792,5 mln. so'mni, shundan muddati o'tgan 34 212,6 mln. so'm yoki jami qarzdorlikning 0,4 foizini tashkil qiladi. Muddati o'tgan debitor qarzdorlik 2023 yil 1 iyunga nisbatan solishtirganimizda 2,6 martani tashkil qiladi.

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalarini, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalari.

### 2024 yil 1 iyun holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi

(jamiga nisbatan, foizda)



Eng ko'p debitor qarzdorlik "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 452 757,3 mln. so'm (5,9 foiz), O'zcharsanoat AJ 4 296 008,2 mln. so'm (56,0 foiz) va "O'zbekneftegaz" AJ korxonalarida 1 318 625,0 mln. so'm (viloyat bo'yicha jami qarzdorlikdan 17,2 foiz) kuzatilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari, hududlarda va idoralarda muddati o'tgan qarzdorlikni tugatish bo'yicha tizimli ishlar tashkillashtirilganligi natijasida muddati o'tgan debitor qarzdorlikning o'sish sur'ati kamayib bormoqda.


**2024 yil 1 iyun holatiga hududlar kesimida  
korxonalar va tashkilotlarning debitor qarzdorligi**

	Debitor qarzdorlik, mln. so‘m	shundan muddati o‘tgan	muddati o‘tgan qarzdorlik ulushi, foizda
<b>Buxoro viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>7 676 792,5</b>	<b>34 212,6</b>	<b>0,4</b>
Buxoro sh.	826 268,4	29 054,6	3,5
Kogon sh.	80 006,4	-	-
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	101 486,3	719,2	0,7
Vobkent	10 963,1	-	-
Jondor	10 800,0	-	-
Kogon	107 150,7	-	-
Olot	9 976,3	-	-
Peshko‘	137 612,1	-	-
Romitan	78 075,4	-	-
Shofirkon	16 170,7	--	-
Qorako‘l	4 349 105,9	-	-
Qorovulbozor	1 514 103,2	-	-
G‘ijduvon	435 074,1	4 438,8	1,0

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz

### 2024 yil 1 iyun holatiga vazirlik va idoralarning kreditor qarzdorligi

(jamiga nisbatan foizda)



Eng ko'p kreditor qarzdorlik "O'zbekneftgaz" AJ 1 735 553,3 mln.so'm (37,0 foiz), "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ 516 212,3 mln.so'm viloyat bo'yicha jami kreditor qarzdorlikdan 11,0 foiz), O'zbekiston to'qimachilik va tikuv trikotaj uyushmasi 843 737,5 mln.so'm (18,0 foiz) kuzatildi.

Hududlar kesimida kreditor qarzdorlikning asosiy qismi Qorovulbozor (1 821 717,4 mln. so'm), G'ijduvon (964 583,9 mln. so'm) tumanlari va Buxoro (918 517,8 mln. so'm) shahriga to'g'ri keladi.

Muddati o'tgan kreditorlik qarzdorliklar 27 194,1 mln. so'mni tashkil qiladi.

**2024 yil 1 iyun holatiga hududlar kesimida korxonalar va tashkilotlarning kreditor qarzdorligi**


	<b>Kreditor qarzdorlik, mln.so‘m</b>	<b>shundan muddati o‘tgan</b>	<b>Muddati o‘tgan qarzdorlik ulushi, foizda</b>
<b>Buxoro viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>4 691 703,4</b>	<b>27 194,1</b>	<b>0,6</b>
Buxoro sh.	918 517,9	-	-
Kogon sh.	175 247,6	-	-
<i>tumanlar</i>			
Buxoro	8 193,2	13 417,7	163,8
Vobkent	150 916,7	-	-
Jondor	12 534,9	-	-
Kogon	71 994,7	-	-
Olot	78 963,6	-	-
Peshko‘	103 136,1	-	-
Romitan	44 003,7	-	-
Shofirkon	249 775,6	-	-
Qorako‘l	92 118,3	-	-
Qorovulbozor	1 821 717,4	-	-
G‘ijduvon	964 583,9	13 776,4	1,4

<sup>1)</sup> Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.



Alohida xo'jalik boshqaruv organlarining debitor va kreditor qarzdorligi

mln. so'm



Xo'jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlik qarzdorlikka nisbatan quyidagi ma'lumotlar bilan tavsiflanadi:

	Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi	
	mln. so'm	Debitorga nisbatan, foizda
O'zbekneftgaz AJ	416 928,3	131,6
Hududiy elektr tarmoqlari AJ	63 455,0	114,0
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati	497 793,5	2,4 m.

Jami kreditor qarzdorlikning debitordan oshishi O'zbekneftgaz AJ 416 928,3 mln. so'mga (131,6 foiz), To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati 497 793,5 mln.so'mga (2,4 marta ko'p) kuzatildi. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Daromad (foyda) solig'i to'lagunga qadar foyda (zarar)** – korxonalar va tashkilotlarning barcha xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig'indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

**Debitorlik qarzlari** – xaridorlar va buyurtmachilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar, budjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar, yig'imlar va sug'urta bo'yicha bo'nak to'lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo'yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

**Kreditorlik qarzlari** – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to'lovlar bo'yicha qarzi, sug'urta bo'yicha qarzi, davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzi, ta'sischi'larga qarzlari, mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o'z ichiga oladi.

**Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar)** – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo'shimcha qiymat solig'i hamda aksiz solig'ini qo'shgan holda.

**Muddati o'tgan qarzlari** – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so'ndirilmagan qarzlarning umumiy summasi.

**Aktiv** – ma'lum bir sanadagi tashkilot aktivlari tarkibi va qiymatini aks ettiruvchi buxgalteriya balansi (chap tomon).

**Passiv** – korxonalar mablag'lari (majburiyatlari va kapitali) shakllanishining barcha manbalari yig'indisining (o'ng tomoni) qarama-qarshi qismi.